

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**

**XASHIMOVA SAYYORA XOLMURADOVNA**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL**  
**ZO‘RIQISHLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK**  
**DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Xashimova Sayyora Xolmuradovna**

Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishining  
psixologik determinantlari .....3

**Хашимова Сайёра Холмуродовна**

Психологические детерминанты проявления эмоционального напряжения у  
подростков с ограниченными возможностями .....21

**Xashimova Sayyora Xolmuradovna**

Psychological determinants of emotional stress exertion in adolescents with  
disabilities .....41

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of publications .....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**

**XASHIMOVA SAYYORA XOLMURADOVNA**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL**  
**ZO‘RIQISHLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK**  
**DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P774 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Beknazarova Lola Sadinovna**  
psixologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Atabayeva Nargis Batirovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+998 65) 221-29-14; faks: (+998 65) 221-27-57; email: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.N. Nazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc), professor

**Sh.Sh. Rustamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Xuseynova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda imkoniyati cheklangan o'smirlarning emotsional zo'riqish holatlarini bartaraf qilish, stress va nizolarga nisbatan psixoemotsional barqarorligini oshirish, ijodiy faolligini rivojlantirish, jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda psixik va jismoniy nuqsonlari bo'lgan taxminan 500 million kishi aniqlangan<sup>1</sup>. Bu sayyoramiz aholisining 1/15 qismini tashkil etmoqda (shu jumladan, 200 millionga yaqin nogiron bolalar). Bolalardagi nogironlik hayotning sezilarli darajada cheklanishini anglatadi, bu rivojlanishning buzilishi, o'z-o'ziga xizmat qilishi, muloqot qilishi, bilimlarni o'rganishi, kelajakda kasbiy ko'nikmalarni egallashdagi qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Imkoniyati cheklangan o'smirlarni jamiyatga moslashtirish, ma'lum kasbiy ko'nikmalarni shakllantirib borish, individual psixologik xususiyatlarini, jumladan, hissiy-emotsional sohasini o'rganishni taqozo etmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional barqarorlikni ta'minlash va murakkab sharoitlarda vaziyatlarni adekvat baholay olish bilan bog'liq indekatorlarini shakllantirish, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalashni taqozo etmoqda. BMTning Ta'lim, Fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKO ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda minglab o'smirlarda emotsional buzilishlarning orqali turli ko'rinishdagi salbiy holatlar kuzatilmoqda<sup>2</sup>. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan o'smirlar emotsional zo'riqish indikatorlarini tahlil qilish bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Dunyoda emotsional zo'riqishlar va ularning tabiati, stressogen vaziyatlar va ularning o'quv faoliyatiga ta'siri, chorasizlik fenomeni va uning shaxs salomatligiga ta'siri, frustratsion tolerantligini barqarorlashtirish asosida shakllanganligi, subyekt-subyekt munosabatlarida hamkorlikdagi emotsional muloqotning faoliyatda namoyon bo'lishi, o'quv faoliyatida stressga barqarorlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik, individual omillarini hissiy-emotsional holatlarga integrativ ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasiga ham davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarni raqobatbardosh, bilimli, o'z ustida ishlaydigan, novator etib tarbiyalash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha zaruriy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. 2022 – 2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan “Jamiyat va davlatni yangicha isloh etish, ilm-fan sohasini ilg'or texnologiyalar bilan yangicha boyitish, jamiyat hayotida ijtimoiy faol yoshlarning rolini yanada oshirish, zamonga yangicha nazar bilan qarashni shakllantirish”<sup>3</sup> kabilar fikrimizning yaqqol ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026

<sup>1</sup> <https://www.un.org/ru/global-issues/population>

<sup>2</sup> [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/childcon.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022 yil 17 fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-74 sonli Farmonlari, 2023 yil 27 fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-74-son, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan o'smirlarning psixologik xususiyatlari, ularning hissiy-emotsional sohasi bilan bog'liq masalalarni F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, D.T.Ismatova, X.A.Kasimova, A.U.Hayitov, N.G'.Kamilova, L.U.Ravshanov, D.S.Qarshiyeva va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan E.F.Zeer, A.B.Karpov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, JI.M.Mitina, V.Y.Orel, A.A.Rean, D.Lubovskiy, Y.Kukina, O.A.Konopkin, I.S.Ognev va boshqalar tomonidan imkoniyati cheklangan o'smirlar o'quv faoliyatidagi obyektiv va subyektiv to'siqlar, shaxs o'z-o'zini rivojlantirish kabi masalalar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan.

Xorij psixologlaridan emotsional zo'riqishlarni korreksiyalash borasidagi tadqiqotlarda jumladan, A.Bandura, Z.Freyd, E.Krechmer, D.Mayers, G.Ollport, K.Tomas kabilarning olib borgan ilmiy izlanishlarida ushbu muammo to'g'risida sharhlar berilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejalari hamda bajarilayotgan "Globallashuv jarayonida O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish istiqbollari: nazariya va amaliyot" nomli loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishining psixologik determinantlarini aniqlash hamda korreksiyalash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

imkoniyati cheklangan o'smirlarning emotsional zo'riqishlarini o'quv faoliyatidagi omillar bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etish;

imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni tahlil etish;

imkoniyati cheklangan o'smirlardagi emotsional zo'riqishlarning psixologik himoya mexanizmlari bilan bog'liq jihatlarini tadqiq qilish;

imkoniyati cheklangan o'smirlardagi emotsional zo'riqishlarning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishining psixologik determinantlari belgilangan bo'lib, tadqiqotga Samarqand viloyatidan 45 nafar, Buxoro viloyatidan 30 nafar hamda Jizzax viloyatidan 30 nafar, jami, 105 nafar maxsus maktablarda tahsil oluvchi o'smir o'quvchilar jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishining psixologik determinantlarini aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa metodlaridan, shuningdek, I.D.Ladanov, V.A.Urazayevalar tomonidan ishlab chiqilgan "Stress omillarining ekspress darajasi" so'rovnomasi, Frayburg savolnomasi yordamida shaxs xususiyatlarini o'rganish metodikasi, R.Plutchik va G.Kellermannning "Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish" metodikasi, S.R.Panteleev va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" hamda «O'quvchilar ruhiy asab barqarorligini aniqlash» (L.S.Beknazarova, S.X.Xashimova) so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

imkoniyati cheklangan o'smirlarning emotsional zo'riqishlari ta'lim jarayonidagi munosabatlarda ko'zi ojizlarga qaraganda eshitishda nuqsoni bor bolalar ko'proq xavotirlanishni namoyon qilganligi asabiylik, qo'zg'aluvchanlikka olib kelganligi, ta'limiy axborotlarni idrok qilishdagi qiyinchiliklarni kuchaytirganligi tufayli o'quv faoliyatidagi omillar bilan determinatsiyalashganligi asoslangan;

imkoniyati cheklangan o'smirlarning o'quv faoliyati jarayoniga oson moslasha olishi, berilgan topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishi, murakkab vaziyatlarda mustahkam irodani shakllantira olishining ularda shakllangan axloqiy mezonlar bilan bevosita bog'liqligi asoslangan;

imkoniyati cheklangan o'smirlardagi emotsional zo'riqishlarni namoyon bo'lishi shaxsdagi xavotirlanish regressiya, autoagressiya siqib chiqarish ta'sirida pasayganligi jismoniy nuqson bilan bog'liq pessimistik kayfiyatni kamayishiga olib kelishiga asoslanib, o'quvchilardagi "kompensatsiya" psixologik himoya mexanizmining faollashuvi bilan uyg'un kechishi isbotlangan;

imkoniyati cheklangan o'smirlardagi emotsional zo'riqishlarning namoyon bo'lishida o'z-o'zini idora qilish xavotirlanish, o'zini qadrlash, o'zini qabul qilish autoagressiya, samimiylilik o'zini chetga olish bilan teskari bog'lanishlarga ega

bo'lganligi tufayli shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati ustuvor determinant ekanligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashgan maktablar tizimida eshitish va ko'rishda nuqsoni bor o'smirlar emotsional zo'riqish holatlarini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir test va so'rovnomalar amaliyotga olib chiqilgan;

imkoniyati cheklangan o'smirlarda zo'riqish holatlarining psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali, ulardagi turli emotsional holatlar namoyon bo'lishi va emotsional barqarorlikka erishish usullari aniqlangan;

imkoniyati cheklangan o'smirlar o'quv faoliyatida yuzaga keladigan emotsional zo'riqishlarni keltirib chiqaruvchi psixologik xususiyatlar, emotsional holatlar bo'yicha amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan psixodiagnostik tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda qo'llash uchun tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi; natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy va amaliy xulosalar orqali kelgusida emotsional zo'riqishlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni imkoniyati cheklangan o'smirlar o'quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan turli xil qiyin vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, unda maxsus psixologiya, konsultativ psixologiya, psixodiagnostika, kasbiy psixologiya, differensial psixologiya va tibbiyot psixologiyasi sohalari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotdan olingan natijalardan ishning ilmiy-nazariy jihatlarini shakllantirishga va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablarda faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlarning kasbiy faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, emotsional zo'riqishlarni tizimli ravishda amaliy jihatdan o'rganishni o'z ichiga oladi. Imkoniyati cheklangan o'smirlar o'quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan turli emotsional zo'riqishlarni bartaraf qilishda, mashg'ulotlar davomida fiziologik va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishda samara beradi. Shuningdek, "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya", "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya", "Psixologik trening asoslari", "Psixologik xizmat. Psixokorreksiya", "Stress psixologiyasi", "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya", "Umumiy psixodiagnostika", "Maxsus psixologiya" fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining psixologik determinantlarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqishlari ta‘lim jarayonidagi munosabatlarda ko‘zi ojizlarga qaraganda eshitishda nuqsoni bor bolalar ko‘proq xavotirlanishni namoyon qilganligi asabiylik, qo‘zg‘aluvchanlikka olib kelganligi, ta‘limiy axborotlarni idrok qilishdagi qiyinchiliklarni kuchaytirganligi tufayli o‘quv faoliyatidagi omillar bilan determinatsiyalashganligi asoslanganligiga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-169-son buyrug‘i bilan «Muloqot psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-169-a son ma‘lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqishlarini o‘quv faoliyatidagi omillar bilan bog‘liq jihatlari tadqiq etilgan;

imkoniyati cheklangan o‘smirlarning o‘quv faoliyati jarayoniga oson moslasha olishi, berilgan topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishi, murakkab vaziyatlarda mustahkam irodani shakllantira olishining ularda shakllangan axloqiy mezonlar bilan bevosita bog‘liqligi asoslanganligiga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-169-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-169-a son ma‘lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi psixologik xususiyatlari tahlil etilgan;

imkoniyati cheklangan o‘smirlardagi emotsional zo‘riqishlarni namoyon bo‘lishi shaxsdagi xavotirlanish regressiya, autoagressiya siqib chiqarish ta‘sirida pasayganligi jismoniy nuqson bilan bog‘liq pessimistik kayfiyatni kamayishiga olib kelishiga asoslanib, o‘quvchilardagi “kompensatsiya” psixologik himoya mexanizmining faollashuvi bilan uyg‘un kechishi isbotlanganligiga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-169-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-169-a son ma‘lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan o‘smirlardagi emotsional zo‘riqishlarning psixologik himoya mexanizmlari bilan bog‘liq jihatlari tadqiq qilingan;

imkoniyati cheklangan o‘smirlardagi emotsional zo‘riqishlarning namoyon bo‘lishida o‘z-o‘zini idora qilish xavotirlanish, o‘zini qadrlash, o‘zini qabul qilish autoagressiya, samimiylilik o‘zini chetga olish bilan teskari bog‘lanishlarga ega bo‘lganligi tufayli shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati ustuvor determinant ekanligi dalillanganligiga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-169-son buyrug‘i bilan «Muloqot psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil

13-iyuldagi PM-169-a son ma'lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan o'smirlardagi emotsional zo'riqishlarning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 17 ta ilmiy maqola, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsion ish kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 125 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot metodlari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchliligining asoslanishi, natijalarning amaliyotga tadbiq etilishi, aprobatsiyadan o'tkazilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion tadqiqotning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqish xususiyatlarini o'rganishning nazariy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy psixologiyada emotsional zo'riqish muammosining o'rganilish holati, imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqish fenomenining psixologik tadqiqi hamda imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik xususiyatlar o'ziga xos tarzda bayon qilingan. Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishi muammosi bir qator G'arb olimlarining asarlarida hayotiy misollar hamda pedagogik-psixologik qarashlar asosida yoritib berilgan, xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari chuqur tahlil etilgan.

O'zbek olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.M.Umarov, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova, U.D.Qodirov, D.J.Sharipova, A.M.Jabborov, N.A.Sog'inov, A.T.Kadirova kabilarning tadqiqot ishlari hissiy zo'riqishlar muammosiga bag'ishlangan.

Rus psixologlaridan E.P.Ilin, R.S.Rubin, V.V.Stolin, A.N.Leontyev, N.I.Naenko, O.V.Ovchinnikov, V.A.Kruteskiy, M.E.Seligman, F.Y.Vasilyuk, Y.M.Zabrodin, M.A.Vorobyova va boshqalarning ilmiy izlanishlari imkoniyati cheklangan o'smirlarning emotsional zo'riqishlarini keltirib chiqaradigan psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Z.Freyd, M.E.Seligman, L.Abramson, K.Peterson, Ch.Karver, M.Sheyer, S.Maddi, K.Xorni, D.Mayers, E.Krechmer, G.Ollport, K.Tomas, V.Kvinnlarning ilmiy izlanishlarida imkoniyati cheklangan o'smirlar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida sharhlar berilgan.

Ta'kidlash joizki, imkoniyati cheklangan o'smirlarda bu kabi emotsional ta'sirlanish sog'lom bolalarga qaraganda bir necha barobar kuchli ro'y beradi. Bu esa ularning rivojlanishi, jamiyatga qo'shilishiga yoki uzoqlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning **«Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishni tadqiq etishning metodologik asoslari»** deb nomlangan ikkinchi bobida imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar muammosiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar, emotsional zo'riqishni tahlil etishning psixologik tasnifi hamda tadqiqot metodikalari tavsifi va birlamchi ma'lumotlar tahlili bevosita yoritib berilgan. Bundan tashqari mazkur bobda imkoniyati cheklangan o'smirlarda tafakkur, dunyoqarash, mustaqil fikrlashning shakllanib borishi, ushbu jarayonga jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarning ta'sir ko'rsatishi, shaxs xulq-atvorini boshqarib, muvofiqlashtirib turishga uning ko'rsatgan ta'siri masalalari bayon qilingan.

Shuningdek, tadqiqotdan olingan natijalar, imkoniyati cheklangan, eshitishda nuqsoni bor o'smir o'quvchilarda emotsional zo'riqish va stressogen holatlar bo'yicha so'rovnomalardan olingan ko'rsatkichlarning tahlili keltirilgan.

Shaxs faoliyatida stress omillarining ekspress diagnostikasi so'rovnomasi bo'yicha olib borilgan izlanishlarimiz natijalariga ko'ra, imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarning nizolashuvchanlik va o'quv faoliyati doirasida zo'riqish shkalalari o'rta darajada, haddan tashqari zo'riqish va o'qituvchi bilan bog'liq munosabatlardagi zo'riqish quyi darajada, nizolashuvchanlik va o'quv faoliyati doirasida zo'riqish shkalalari yuqori nisbatlarni namoyon qilgan.

Tadqiqotchi S.V.Korostovaning fikricha, emotsiyaning aks ettirish funksiyasi hodisalarni umumlashtirib baholashda ifodalanadi. Emotsiyalar butun organizmni qamrab oladi va shu bilan deyarli bir lahzada integratsiyani, u bajaradigan barcha turdagi faoliyatni umumlashtirishni keltirib chiqaradi. Bu birinchi navbatda, unga ta'sir qiluvchi omillarning foydali va zararli ekanligini aniqlashga hamda ularni lokalizatsiya qilishdan oldin reaksiyaga kirishishga imkon beradi, shuningdek, zararli ta'sirlari aniqlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishining amaliy jihatlari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda tadqiqot obyektlaridan olingan dastlabki natijalar tahlili, korrelyatsion bog'lanishlar tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, mazkur bobda tadqiqotimiz maqsadiga mos tanlangan metodlarning qo'llanilishi va undan kutilayotgan natijalar to'g'risida amaliy tahlillar berilgan.

Dastlab, “O'quv faoliyatida zo'riqish omillari diagnostikasini o'rganish” so'rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

O'quv faoliyatida zo'riqish omillari diagnostikasini o'rganish so'rovnomasi orqali olingan natijalari tahliliga o'tadigan bo'lsak, “haddan tashqari zo'riqish” omilida quyidagicha ko'rsatkich kuzatildi ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ). Mazkur omil eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarda yuqori natijani ko'rsatdi. Odatda, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarda qo'zg'aluvchanlik, jizzakilik, impulsivlik, muvozanatsizlik kabi sifatlar ustunlik qiladi. Bundan tashqari eshitishda nuqsoni bor o'smirlar ijtimoiy munosabatlarda ko'proq xavotirlanishga olib kelishi va o'rnatilgan psixologik me'yorlarga nisbatan asabiylik bilan javob qaytarishi

aniqlandi.

1-jadval.

**“O‘quv faoliyatida zo‘riqish omillari diagnostikasini o‘rganish”  
so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar tahlili (n=105)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar, n=58	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar, n=47	t	p
Nizolashuvchanlik	14,5	15,3	-1,2	0,17
Haddan tashqari zo‘riqish	16,2	14,0	-2,3	0,05
O‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish	11,1	11,5	-1,0	0,28
O‘qituvchi bilan bog‘liq munosabatlardagi zo‘riqish	13,0	13,4	-1,1	0,15

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$ .

“Nizolashuvchanlik” omilida har ikkala respondentlar guruhida o‘rtachadan yuqori natija qayd etildi ( $t=-1,2$ ;  $p \leq 0,17$ ). Mazkur holat imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘z “Men”ligini ustun qo‘yish, har qanday holatda o‘z fikri va g‘oyalarini boshqalarnikiga nisbatan yuqori baholashga intilish kabi harakatlarning yaqqol namoyon etilishi bilan ko‘zga tashlanib turdi.

“O‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish” omili o‘rtachadan quyi natijani ko‘rsatdi ( $t=-1,0$ ;  $p \leq 0,28$ ). Ushbu empirik ma‘lumotlardan shuni guvohi bo‘lishimiz mumkinki, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning yoshi ulg‘aygani sari ularning maktab hayoti bilan bog‘liq bezovtalik darajasi nisbatan kamayishi va belgilangan me‘yordan yuqori ko‘rsatkichlarga nisbatan oshib borishi kuzatildi. Buning asosiy omillaridan biri sifatida o‘smirlarning maktab hayotiga moslashish darajasi me‘yorida ekanligini kuzatishimiz mumkin. O‘smirlik davrining dastlabki bosqichida yuz berayotgan psixologik va fiziologik o‘zgarishlar o‘quv faoliyatiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi.

“O‘qituvchi bilan bog‘liq munosabatlardagi zo‘riqish” omilida ham o‘rtachadan past natija kuzatildi ( $t=-1,1$ ;  $p \leq 0,05$ ). Shaxs faoliyati tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, faoliyat tashqi ongli dunyoni ongli psixik aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Har qanday faoliyatda shaxs o‘z harakatlarining maqsadini anglaydi, kutiladigan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tartibini o‘ylaydi, irodaviy zo‘r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va mag‘lubiyatni o‘ylaydi.

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli shaxs boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o‘rnatishi, o‘zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti – kommunikatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro‘y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini

ishlab chiqilgan. Emotsional zo‘riqish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning fe‘l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarda emotsional zo‘riqish normalari passiv emas, balki ular ham jamiyat hayotida, ham shaxs turmushida faol ta‘sir ko‘rsatadigan muhim faktordir. Ilg‘or, taraqqiyparvar axloq normalarining ta‘lim-tarbiyaga ta‘siri ijobiy bo‘ladi, reaksiyon xulq normalarining ta‘siri esa jamiyatda ham, shaxs tarbiyasida ham salbiy bo‘ladi.

Keyingi 2-jadvalda imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarning shaxs xususiyatlari so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalari keltirilgan.

**2-jadval.**

**“Shaxs xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi  
bo‘yicha olingan natijalar tahlili (n=105)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar, n=58	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar, n=47	t	p
Asabiylashganlik	7,1	7,4	-1,0	0,23
O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik	4,2	4,7	-1,2	0,11
Ruhiy siqilish	3,1	5,5	-2,2	0,05
Jizzakilik	4,4	4,6	-1,0	0,24
Tortinchoqlik	5,4	3,2	-2,6	0,05
Ekstraversiya-introversiya	4,2	4,7	-0,8	0,22
Ta‘sirchanlik	6,1	4,0	-2,2	0,05
Vazminlik	4,1	4,2	-0,8	0,15

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ , \*\*  $p \leq 0,01$ .

Tadqiqotda olinadigan natijalarning imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilardan natijalarning tahlili o‘quv faoliyati jarayonida ularda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va emotsional zo‘riqishlarni qay tarzda baholay olishi va shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shaxs xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, “ruhiy siqilish” ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ), “tortinchoqlik” ( $t=-2,6$ ;  $p \leq 0,05$ ) hamda “ta‘sirchanlik” ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli darajadagi farqlar kuzatildi.

“Ruhiy siqilish” omili ko‘zi ojiz o‘quvchilarda ustunlik qildi ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, ko‘zi ojiz o‘quvchilar hissiy-emotsional sohasida, shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar, o‘zaro bir-birini tushunmaslik orqali kelib chiqadigan kimdandir yoki butun olamdan alamzadalik, xayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirob, g‘azab, atrofda qilarga nisbatan nafrat, hasadning namoyon bo‘lishi kabi sifatlar nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatildi.

“Tortinchoqlik” omilida eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarda ustunlik qildi ( $t=-2,6$ ;  $p \leq 0,05$ ). Mazkur omilning yuqori bo‘lishi o‘quvchilarda muloqotga kirisha

olishi, insonlarni yoqtirishi, notanish insonlar orasida o'zini erkin tutishi, tengdoshlari jamoasiga kira olishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari tufayli biron-bir faoliyatda o'zini ko'rsata olishi hamda hayotida uchraydigan omadsizliklarni yengil qabul qila olishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

“Ta'sirchanlik” omili eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarda ustunlik qildi ( $t=-2,2$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bizga ma'lumki, shaxs doimiy ravishda ijtimoiy ta'sirlar ostida bo'ladi. Har bir shaxs mazkur ta'sirlarga individual tarzda reaksiya beradi. Ta'sirchanlik omili yuqori bo'lgan shaxslarda atrof-muhitdan kelayotgan axborotlarga nisbatan o'ta sezuvchan bo'ladi. Imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarda tez ta'sirga berilish, tezkor qarorlarni qabul qilish va juda tezlik bilan o'zgarib qolishi past darajada ekanligini anglatadi. Eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarda mazkur omil idrok sifatleri bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

“Asabiylik” har ikkala respondentlar guruhida o'rtachadan yuqori natijani ko'rsatdi ( $t=-1,0$ ;  $p\leq 0,23$ ). Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda asabiylashish omilining yuqori bo'lishi, bevosita xavotirlanish jarayonlari bilan bog'liqdir. To'xtovsiz xavotirlantiruvchi fikrlarning vujudga kelishi bu shaxsni asabiylashishiga sabab bo'ladi. Imkoniyati cheklangan o'smirlarni xavotirga soluvchi fikr xavotirlantiruvchi hissiyot (ko'ngil g'ashligi, kayfiyatsizlik) va betoqatlik emotsional holatiga olib keladi. Mazkur holatlar esa ularni ta'lim olishida ma'lum bir to'siqlarni keltirib chiqaradi.

“O'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkorlik” omili ham o'rtachadan yuqori natijani qayd etdi ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,11$ ). L.A.Berkovits nazariyasiga ko'ra, tajovuzkorlik omili xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liqdir. Mazkur nazariyaga muvofiq, har qanday tajovuzkor xatti-harakatlar ichki impulslarni to'sib qo'yish hamda inkonsizlik, umidsizlik hislarining ortishi bilan yuzaga keladi. Shu asnodan doim tajovuzkor ruhda faoliyat yuritadi. Y.B.Mojginskiyning ta'kidlashicha, shaxs tomonidan o'zlashtirilgan madaniy va submadaniy me'yorlar ham keyinchalik tajovuzkor xatti-harakatlarini rivojlantirishni osonlashtiradi.

“Jizzakilik” omilida ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,11$ ). Bu shundan dalolat beradiki, imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tashqari jizzakilik shkalasining yuqoriligi, ularda xulq-atvorning oppozitsion, mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib, ular bilan kurashishgacha bo'lgan reaksiyalarning ustunligini ifodalaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda shubhalanuvchanlik ya'ni ishonchsizlikka moyillik, shaxslar bilan ehtiyot bo'lib munosabat o'rnatish, atrofdagi shaxslar bilan muomala-munosabatda bo'lishdan qochish, “ular menga zarar yetkazishi mumkin”, degan tasavvurning mavjudligi kuzatildi.

“Ekstraversiya-introversiya” omilida ham ishonchli darajadagi farqlar kuzatilmadi ( $t=-0,8$ ;  $p\leq 0,22$ ). Imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarning introvertligi, ular boshqalar bilan tez munosabatlarni amalga oshira olmasligi, muloqotdoshining kechinmalarini oldindan tez payqay olmasligi va ko'proq yopiq tipdagi shaxs sifatida alohida xarakterlanishi namoyon bo'lganligida ko'zga tashlanadi.

“Vazminlik” omili har ikkala guruhda o'rtacha natijani ko'rsatdi ( $t=-0,8$ ;  $p\leq 0,15$ ). Imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarda standart me'yor bo'yicha o'rta darajani tashkil qilganligi berilgan topshiriqlarni bosiqlik va diqqat bilan

bajarishni ko‘rsatib beradi.

Tadqiqotimiz davomida Kellerman-Plutchikning “Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish” metodikasi orqali imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning emotsional zo‘riqishlariga ta’sir etuvchi omillar, o‘quvchilarni psixologik muhofazasi qay darajada ekanligi, ularda qaysi mexanizm omili ustunlik qilishi aniqlandi.

**3-jadval.**

**“Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish” so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahlili (n=105)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar, n=58	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar, n=47	t	p
Inkor etish	11,2	9,0	-2,2	0,05
Siqib chiqarish	9,2	9,6	-0,9	0,18
Regressiya	9,2	12,0	-2,4	0,05
Kompensatsiya	8,7	10,8	-2,5	0,05
Proyeksiya	6,4	8,2	-2,1	0,05
O‘rnini almashtirish	8,1	8,7	-1,0	0,10
Kognitivlik	7,2	7,3	-0,8	0,24
Giperkompensatsiya	6,2	6,5	-1,1	0,15

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$ .

Olingan natijalarga ko‘ra, “inkor etish” ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ), “regressiya” ( $t=-2,4$ ;  $p \leq 0,05$ ), “kompensatsiya” ( $t=-2,5$ ;  $p \leq 0,05$ ) hamda “proyeksiya” ( $t=-2,1$ ;  $p \leq 0,05$ ) omillarida farqlar kuzatildi.

“Inkor etish” omili eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarda yuqori natijani ko‘rsatdi ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ). Inkor etish – bu o‘zi haqida hosil bo‘lgan tasavvurga to‘g‘ri kelmaydigan yangi ma’lumotlardan qochishga intilishdir. Inkor etish atrofdegilar tomonidan diqqatni barqarorligining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli bo‘ladi, bu yerda diqqatning har qanday negativ tomonlarini qabul qilish bosqichi to‘xtaydi, pozitiv tomonlari esa davom etadi. Natijada shaxs olamni va o‘zini-o‘zi qabul qilish hissiyotini zararsiz namoyish etish imkonini qo‘lga kiritadi, ammo buning uchun u doimiy tarzda atrofdegilarning diqqat-e’tiborini har qanday usul bilan o‘ziga jalb qilishga urinadi. Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar faoliyati davomida befarqlik, beqaror emotsiyaning ustunligi, atrofdegilarga nisbatan e’tiborsizlik xususiyatlari ustun ekanligi aniqlandi.

“Regressiya” omilida ahamiyatli darajadagi farqlar qayd etildi ( $t=-2,4$ ;  $p \leq 0,05$ ). “Regressiya” omili 2-bosqich ko‘zi ojiz o‘quvchilarda yuqori ekanligi aniqlandi. Regressiya – xulq-atvor va tafakkurning ilk shakllariga qaytish turidagi psixologik mexanizmdir. Regressiya erta bolalikdan o‘zini qo‘lga ololmaslik, tashabbus paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi hissiyotni jilovlash uchun rivojlanadi. Odatda, mazkur omil imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni tushkunlikka tushgan paytda u o‘z yoshiga mos xulq-atvorni ko‘rsata

olmasligida namoyon bo‘ladi. Bundan kelib chiqib ma’lum bo‘ladiki, ushbu himoyaning tez-tez qo‘llanilishi o‘quvchi shaxsining rivojlanishini sekinlashtirib, uni bolalikdagi ruhiy holatda qoldiradi, o‘zini erkin va ma’suliyatli tutishga imkon bermaydi.

“Proyeksiya” omilida ham ishonchli farqlar kuzatildi ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ). Proyeksiyada ta’qiqlangan impulslar ta’sirida yuzaga kelgan haqiqatga mos qaror topa olmaslik natijasida mavjud voqelik bo‘lib idrok etiladi. Buning natijasida shaxsga mazkur impulslar o‘zidan emas, tashqaridan kelayotgandek tuyula boshlaydi. Shuning uchun, bezovtalik tug‘dirayotgan impuls tashqi olamga ko‘chiriladi, shaxs o‘zining xohish va mayllarini birovlarida ko‘ra boshlaydi.

“Kompensatsiya” omili ko‘zi ojiz o‘quvchilarda nisbatan yuqori natijani qayd etdi ( $t=-2,5$ ;  $p\leq 0,05$ ). Kompensatsiya himoya mexanizmi ham insonning o‘zidagi mavjud kamchiliklar sababli paydo bo‘luvchi himoya mexanizmidir. Uning ham asosiy vazifasi faqatgina kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan ruhiy zo‘riqishlardan xalos bo‘lish maqsadida ularni to‘g‘ri anglamasdan inkor etib insondagi boshqa sifatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, kompensatsiya ma’lum bir kishining shaxsiy yoki jismoniy kamchiliklari o‘rnini to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha harakatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Qolaversa, kompensatsiya jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarga sabab bo‘luvchi faoliyat va holatlarni boshqa faoliyat sohalariga o‘tkazadi. Metodikaning boshqa omillarida ahamiyatli farqlar kuzatilmadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida “O‘quvchilar ruhiy asab barqarorligini aniqlash” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik.

#### 4-jadval.

#### “O‘quvchilar ruhiy asab barqarorligini aniqlash” so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahlili (n=105)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar, n=58	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar, n=47	T	p
Xavotirlanish	6,8	7,2	-1,2	0,20
Autoagressiya	6,4	6,9	-1,1	0,18
O‘zini chetga olish	5,2	4,7	-1,0	0,14

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$ .

